Oʻzbekistonda ham turizmni raqamlashtirish va barqaror rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlariga aylanmoqda. "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasida turizm sohasini rivojlantirish, xizmatlar eksportini oshirish, xorijiy va ichki turistlar oqimini kengaytirish boʻyicha strategik maqsadlar belgilangan [7]. Mazkur vazifalarni faqat turistik obyektlar sonini koʻpaytirish orqali emas, balki mavjud turizm salohiyatidan samarali va barqaror foydalanish orqali amalga oshirish muhimdir.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Oʻzbekistonda turizm sohasini raqamlashtirish boʻyicha izchil islohotlar va zamonaviy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning ekologik barqarorlikni taʼminlash, resurslardan samarali foydalanish hamda hududlarning turistik salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlarini yagona transformatsion model asosida tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotning maqsadi Oʻzbekistonda raqamli va barqaror turizmni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash hamda mamlakat sharoitiga moslashtirilgan transformatsion modelni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Oʻzbekiston turizm sektorining raqamli va barqaror transformatsiyasini yagona tizim sifatida ifodalovchi besh komponentli modelning taklif etilganligi bilan belgilanadi. Model raqamli infratuzilma, Smart Tourism, yashil infratuzilma, inson kapitali va institutsional boshqaruv komponentlarining oʻzaro integratsiyasiga asoslanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli va barqaror turizmni rivojlantirish masalasi zamonaviy turizm iqtisodiyotining eng muhim ilmiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, tadqiqotchilar tomonidan ushbu masala asosan uchta yoʻnalishda — turizmni raqamlashtirish, Smart Tourism ekotizimini shakllantirish hamda turizmning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini taʼminlash nuqtayi nazaridan oʻrganilgan.

Xorijiy olimlardan D. Buhalis va R. Law turizm sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishini tahlil qilib, internet va raqamli texnologiyalar turistik mahsulotlarni yaratish, marketing, xizmat koʻrsatish hamda isteʼmolchilarning qaror qabul qilish jarayonlariga sezilarli taʼsir koʻrsatganini asoslaydi [1].

Mualliflar tomonidan eTourism rivojlanishining uzoq muddatli evolyutsiyasi koʻrsatib berilgan boʻlib, ushbu yondashuv raqamlashtirishning turizm faoliyatining barcha bosqichlariga kirib borishini tushuntirish uchun muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, Buhalis va Law tadqiqotining asosiy ahamiyati texnologiyani turizmning alohida vositasi sifatida emas, balki turizm biznesining boshqaruv va isteʼmol mexanizmlarini oʻzgartiruvchi omil sifatida talqin qilganidadir.

U. Gretzel, M. Sigala, Z. Xiang va C. Koo Smart Tourism konsepsiyasini rivojlantirib, uni maʼlumotlar, raqamli texnologiyalar va turizm manfaatdor tomonlarining oʻzaro integratsiyasiga asoslangan yangi turistik ekotizim sifatida izohlaydi [3]. Ularning fikricha, Smart Tourism oddiy raqamlashtirishdan farqli ravishda real vaqt maʼlumotlaridan foydalanish, turistik tajribani individuallashtirish va destinatsiyalarni aqlli boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Mazkur konsepsiya tadqiqotimiz uchun alohida ahamiyatga ega, chunki Oʻzbekiston sharoitida raqamli infratuzilmani yaratishning oʻzi yetarli emas; undan turistlar tajribasini yaxshilash, turistik oqimlarni boshqarish va hududlarning resurs salohiyatidan samarali foydalanish uchun foydalanish zarur.

Shuningdek, Gretzel, Werthner, Koo va Lamsfus Smart Tourism ekotizimlarining konseptual asoslarini ishlab chiqib, turizmda raqamli texnologiyalar, maʼlumotlar, turistik xizmat koʻrsatuvchilar, davlat organlari va turistlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqaning ahamiyatini taʼkidlaydi [4]. Bizningcha, ushbu yondashuv Oʻzbekiston uchun taklif etilayotgan transformatsion modelning institutsional komponentini asoslash imkonini beradi. Chunki Smart Tourismni faqat mobil ilovalar yoki elektron xizmatlar majmui sifatida talqin qilish uning iqtisodiy va boshqaruv mohiyatini toraytirib yuboradi. Aksincha, uni davlat, biznes, turist va mahalliy hamjamiyatlarning yagona raqamli ekotizimi sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq.

D. Xiang va D. R. Fesenmaier turizmda axborot texnologiyalari va analitik vositalardan foydalanish masalasiga alohida eʼtibor qaratib, raqamli maʼlumotlarning turistlarning axborot izlash, destinatsiyani tanlash va qaror qabul qilish jarayonlaridagi rolini koʻrsatib bergan [2]. Mazkur ilmiy qarashlar turizmni boshqarishda Big Data va data-driven yondashuvlardan foydalanish zaruratini asoslaydi. Bizning fikrimizcha, Oʻzbekistonda ushbu yondashuvni turistlar oqimini prognozlash, hududiy turizm yuklamasini aniqlash va xizmatlarga boʻlgan talabni oldindan baholashda qoʻllash katta iqtisodiy samara berishi mumkin.

Turizmda innovatsiyalar va Big Data imkoniyatlarining barqarorlik bilan bogʻliqligi P. Del Vecchio, G. Mele, V. Ndou va G. Secundo tomonidan ham tadqiq etilgan. Olimlar turizm sektorida ochiq innovatsiyalar va ijtimoiy Big Data imkoniyatlaridan foydalanish barqaror rivojlanish jarayonlarini qoʻllab-quvvatlashi mumkinligini koʻrsatadi [12]. Mazkur tadqiqot, bizningcha, Smart Tourismning texnologik jihatdan tashqari, innovatsion va maʼlumotlarga asoslangan iqtisodiy model sifatidagi xususiyatini tushuntirishda muhimdir. Ayniqsa, turistlarning raqamli xatti-harakatlari haqidagi maʼlumotlardan destinatsiyalarni boshqarish va xizmatlarni personalizatsiyalashda foydalanish Oʻzbekiston turizmi uchun istiqbolli yoʻnalishdir.

Mahalliy manbalar orasida Oʻzbekiston Respublikasining "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur strategik hujjatda turizmni rivojlantirish, xizmatlar eksportini kengaytirish hamda xorijiy va ichki turistlar oqimini oshirish boʻyicha uzoq muddatli vazifalar belgilangan [7]. Bizning fikrimizcha, strategiyada belgilangan maqsadlarni amalga oshirish bugungi sharoitda turistik obyektlar sonini koʻpaytirish bilangina cheklanmasligi kerak. Ular raqamli xizmatlar sifati, ekologik samaradorlik, hududiy muvozanat va inson kapitalini rivojlantirish bilan uygʻunlashtirilishi lozim.

Oʻzbekiston sharoitidagi amaliy jarayonlar Oʻzbekiston Respublikasi Turizm qoʻmitasi materiallarida ham oʻz aksini topmoqda. Xususan, turizm infratuzilmasini raqamlashtirish boʻyicha yangi startap loyihalarning ilgari surilishi mamlakatda turizm sohasining raqamli transformatsiyasiga institutsional eʼtibor kuchayayotganini koʻrsatadi [9]. Muallif nuqtayi nazaridan, bunday tashabbuslarni alohida raqamli loyihalar koʻrinishida emas, balki yagona Smart Tourism ekotizimining tarkibiy qismlari sifatida oʻzaro integratsiyalash zarur.

Shuningdek, Oʻzbekiston — 2030 strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi turizmni rivojlantirish jarayonlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari bilan bogʻlash uchun muhim institutsional asos yaratadi [8]. Bizningcha, mazkur yoʻnalish turizmni raqamlashtirish siyosati bilan birgalikda olib borilsa, energiya va suv sarfini monitoring qilish, chiqindilarni boshqarish, ekologik transportdan foydalanish kabi amaliy mexanizmlarni raqamli texnologiyalar asosida boshqarish imkoniyati kengayadi.

Barqaror turizmni statistik jihatdan baholash masalasida World Tourism Organization tomonidan ishlab chiqilgan "Measuring the Sustainability of Tourism: Developing a Statistical Framework for Sustainable Tourism" hujjati ham muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi [10]. Mazkur yondashuv barqaror turizmni faqat umumiy ekologik tamoyillar orqali emas, balki oʻlchanadigan statistik indikatorlar orqali baholash zarurligini koʻrsatadi. Oʻzbekiston hududlari uchun Smart Tourism va barqaror turizm indekslarini ishlab chiqishda ushbu metodologik yondashuvdan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, D. Buhalis va A. Amaranggana Smart Tourism destinatsiyalari konsepsiyasini rivojlantirib, raqamli texnologiyalar asosida destinatsiyaning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlarini koʻrsatgan [11]. Ushbu qarash Oʻzbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent kabi yirik turistik markazlarini smart-destinatsiyalarga aylantirish imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Biroq O‘zbekiston sharoitida smart-destinatsiya modeli faqat texnologik rivojlanish bilan cheklanmasdan, tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish va ekologik yuklamani boshqarish mexanizmlari bilan birgalikda shakllantirilishi lozim.

Umuman olganda, mavzuga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda raqamli turizm, Smart Tourism, Big Data va barqaror turizmning alohida konseptual jihatlari yetarlicha chuqur o‘rganilgan. Mahalliy manbalarda esa asosan turizmni rivojlantirishning strategik maqsadlari, raqamlashtirish va yashil iqtisodiyotga oid davlat siyosati hamda amaliy tashabbuslar yoritilgan. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda O‘zbekiston sharoitida raqamli infratuzilma, Smart Tourism, yashil infratuzilma, inson kapitali va institutsional/data-driven boshqaruvni yagona transformatsion modelga birlashtirish masalasi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Aynan mazkur ilmiy bo‘shliq ushbu tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilaydi. Shu sababli maqolada taklif etilayotgan besh komponentli transformatsion model mavjud nazariy qarashlarni O‘zbekistonning institutsional, iqtisodiy va hududiy xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv raqamlashtirishni yakuniy maqsad emas, balki turizmning iqtisodiy samaradorligi, ekologik barqarorligi va ijtimoiy inklyuzivligini ta’minlovchi vosita sifatida qarash imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini turizmni raqamli va barqaror rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar hamda O‘zbekistonning amaldagi strategik va normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta o‘zaro bog‘liq usul va metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, tizimli tahlil metodi yordamida raqamli va barqaror turizm yagona iqtisodiy tizim sifatida o‘rganildi. Ushbu metod orqali raqamli infratuzilma, turistik xizmatlar, ekologik resurslar, inson kapitali va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil metodi qo‘llanilib, O‘zbekistonning turizmni raqamlashtirish holati xalqaro Smart Tourism va Sustainable Tourism konsepsiyalarida belgilangan yondashuvlar bilan taqqoslandi. Bunda Gretzel va boshqalar tomonidan taklif etilgan Smart Tourism modeli [3], UN Tourismning barqaror turizm tamoyillari [5] hamda OECDning turizmni yashil va raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha tavsiyalari [6] metodologik mezon sifatida olindi.

Uchinchidan, kontent-tahlil usuli orqali “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, turizm sohasiga oid Prezident farmon va qarorlari, Turizm qo‘mitasi materiallari hamda xalqaro tashkilotlarning turizm bo‘yicha hisobotlari o‘rganildi. Kontent-tahlil jarayonida “digitalization”, “smart tourism”, “sustainability”, “green tourism”, “innovation”, “digital infrastructure” va “tourism competitiveness” kabi asosiy mazmuniy kategoriyalar ajratildi.

To‘rtinchidan, deskriptiv-statistik tahlil yordamida turizm sektorining rivojlanish tendensiyalari rasmiy statistik va strategik ko‘rsatkichlar asosida umumlashtirildi. Bunda asosiy indikatorlar sifatida xorijiy turistlar soni, turizm xizmatlari eksporti, turizmning YaIMdagi ulushi, raqamli xizmatlardan foydalanish va turizm infratuzilmasining rivojlanish ko‘rsatkichlari olindi.

Beshinchidan, SWOT-tahlil yordamida O‘zbekiston turizmining raqamli va barqaror transformatsiyasiga ta’sir qiluvchi kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar hamda tahdidlar aniqlandi.

Oltinchidan, ekspert baholash usulining elementlari qo‘llanilib, transformatsion modelga kiritiladigan asosiy komponentlarning strategik ahamiyati konseptual jihatdan baholandi. Bunda komponentlar ularning turizm raqobatbardoshligi, ekologik samaradorlik, turist tajribasi va boshqaruv samaradorligiga ta’siri nuqtayi nazaridan guruhlandi.

Mazkur metodlarning kombinatsiyasi tadqiqot obyektini bir tomonlama emas, balki iqtisodiy, texnologik, ekologik va institutsional jihatlarni birlashtirgan holda o‘rganish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston turizmining raqamli va barqaror transformatsiyasi beshta o‘zaro bog‘liq komponent asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.

Birinchi komponent — raqamli infratuzilma. U yuqori tezlikdagi internet, bulutli texnologiyalar, elektron to‘lov tizimlari, yagona turistik ma’lumotlar bazasi va mobil ilovalarni qamrab oladi. Raqamli infratuzilma Smart Tourism tizimining texnologik poydevorini tashkil qiladi [3].

Ikkinchi komponent — Smart Tourism xizmatlari. Bunda sun’iy intellekt asosidagi virtual yordamchilar, personalizatsiyalashgan turistik tavsiyalar, raqamli gidlar, elektron chiptalar, AR/VR texnologiyalari va aqlli navigatsiya tizimlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Uchinchi komponent — yashil infratuzilma. Mehmonxonalar va turistik obyektlarda energiya samaradorligi, quyosh energiyasidan foydalanish, suvni tejash, chiqindilarni saralash va ekologik transportni rivojlantirish ushbu yo‘nalishning asosiy vazifalaridir. UN Tourism barqaror turizmni aynan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarning muvozanati asosida rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [5].

To'rtinchi komponent — inson kapitali va mahalliy hamjamiyat. Raqamli turizmni rivojlantirish uchun turizm xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, mahalliy aholini turizm qiymat zanjiriga jalb qilish va kichik biznesni raqamli platformalarga ulash zarur.

Beshinchi komponent — institutsional va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv. Turistik oqimlarni monitoring qilish, Big Data asosida talabni prognozlash, destinatsiyalarning ekologik yuklamasini baholash va turizm siyosatini real ma'lumotlarga asoslash ushbu komponentning asosiy mazmunini tashkil qiladi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda raqamli va barqaror turizmni rivojlantirish transformatsion modelining asosiy komponentlari[1]

| № | Komponent | Asosiy vositalar | Kutilayotgan natija |
|---|---|---|---|
| 1 | Raqamli infratuzilma | 5G, bulutli texnologiyalar, yagona platforma, elektron to'lov | Xizmatlarning qulayligi va tezligini oshirish |
| 2 | Smart Tourism | AI, Big Data, IoT, AR/VR | Turistik tajribani personalizatsiya qilish |
| 3 | Yashil infratuzilma | Quyosh energiyasi, energiya tejamkor texnologiyalar, ekologik transport | Resurslar sarfini va ekologik bosimni kamaytirish |
| 4 | Inson kapitali | Raqamli kompetensiyalar, malaka oshirish, mahalliy biznes | Bandlik va xizmatlar sifatini oshirish |
| 5 | Smart boshqaruv | Data analytics, monitoring, raqamli dashboard | Samarali va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, transformatsion modelning asosiy xususiyati uning kompleksligidir. Masalan, raqamli infratuzilma mavjud bo'lmasa, Smart Tourism xizmatlarini samarali joriy etish qiyin. Xuddi shuningdek, raqamli texnologiyalar ekologik maqsadlar bilan bog'lanmasa, raqamlashtirishning o'zi barqaror turizmni kafolatlamaydi.

Tadqiqot davomida olib borilgan SWOT-tahlil natijalari O'zbekistonning raqamli va barqaror turizmni rivojlantirish uchun bir qator kuchli tomonlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, mamlakatning boy tarixiy-madaniy merosi, Buyuk Ipak yo'li bilan bog'liq turistik salohiyati, turizmni davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlash va raqamli xizmatlarni kengaytirish imkoniyatlari muhim ustunliklardir.

Zaif tomonlar sifatida hududlar o'rtasidagi raqamli infratuzilma tafovuti, ayrim turistik korxonalarning texnologik imkoniyatlari cheklanganligi, raqamli kompetensiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligi va yashil texnologiyalarning yuqori boshlang'ich qiymatini ko'rsatish mumkin.

Imkoniyatlar qatoriga AI va Big Data texnologiyalarining arzonlashuvi, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, ekologik turizmga global talabning ortishi, raqamli marketing orqali yangi bozorlarni egallash hamda mahalliy turizm brendlarini rivojlantirish kiradi.

Tahdidlar esa kiberxavfsizlik muammolari, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, ekologik resurslarga ortiqcha yuklama va turizmning ayrim hududlarda haddan tashqari konsentratsiyalashuvi bilan bog'liq.

O'zbekistonning 2030-yilgacha turizm sohasida belgilagan maqsadlari ushbu transformatsiyani tizimli ravishda amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, xorijiy turistlar oqimini sezilarli darajada oshirish va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish uchun nafaqat turistik obyektlar sonini, balki xizmatlarning raqamli sifati va xalqaro standartlarga muvofiqligini ham oshirish talab etiladi [7].

Shu nuqtayi nazardan, "Digital Tourism + Green Tourism = Sustainable Smart Tourism" tamoyili O'zbekiston uchun istiqbolli rivojlanish konsepsiyasi sifatida taklif etiladi.

Taklif etilayotgan modelni shartli ravishda uch bosqichda amalga oshirish mumkin:

1-bosqich — 2026–2027-yillar. Raqamli poydevorni shakllantirish: turistik obyektlarni raqamlashtirish, yagona turistik ma'lumotlar bazasini yaratish, elektron xizmatlarni kengaytirish.

2-bosqich — 2028–2029-yillar. Smart Tourism va yashil texnologiyalarni integratsiyalash: AI, Big Data, IoT, AR/VR, yashil mehmonxonalar va ekologik transportni kengaytirish.

3-bosqich — 2030-yil. Integratsiyalashgan Smart Sustainable Tourism ekotizimini shakllantirish: davlat, biznes, turist va mahalliy hamjamiyatlarning yagona raqamli platforma orqali o'zaro bog'lanishini ta'minlash.

Mazkur modelning muhim jihati shundaki, unda raqamlashtirish yakuniy maqsad emas, balki turizmning iqtisodiy samaradorligi, ekologik barqarorligi va ijtimoiy inklyuzivligini ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda turizmni kelgusida rivojlantirish raqamli texnologiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillarining integratsiyasiga bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Raqamli transformatsiya turistik

1 Muallif tomonidan Gretzel et al. [3], UN Tourism [5], OECD [6] hamda O'zbekistonning turizmni rivojlantirishga oid strategik hujjatlari [7] asosida ishlab chiqilgan.

xizmatlarning tezkorligi va qulayligini oshirsa, yashil transformatsiya tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik bosimni kamaytirish va turizmning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida O‘zbekiston uchun besh komponentli transformatsion model taklif qilindi. U raqamli infratuzilma, Smart Tourism xizmatlari, yashil infratuzilma, inson kapitali va mahalliy hamjamiyat hamda institutsional/data-driven boshqaruv komponentlaridan tashkil topadi.

Amaliy jihatdan O‘zbekistonda yagona Smart Tourism Digital Platformni yaratish, turistik obyektlarni raqamli xaritalash, AI asosidagi virtual turistik yordamchilarni joriy etish, Big Data orqali turistlar oqimini monitoring qilish, tarixiy obyektlarda AR/VR texnologiyalaridan foydalanish va yashil mehmonxonalar uchun raqamli monitoring tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, turizm korxonalarini yashil texnologiyalarga o‘tishga rag‘batlantirish uchun imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq mexanizmlaridan foydalanish, turizm xodimlarining raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish zarur.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun bir nechta yo‘nalishlarni taklif etish mumkin.

Birinchidan, O‘zbekiston hududlari kesimida Smart Tourism rivojlanish indeksini ishlab chiqish va uning indikatorlarini statistik jihatdan validatsiya qilish lozim.

Ikkinchidan, turistlarning AI, mobil ilovalar va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasini empirik so‘rovlar orqali o‘rganish zarur.

Uchinchidan, raqamli va yashil texnologiyalarning turistik korxonalar iqtisodiy samaradorligiga ta’sirini ekonometrik modellar yordamida baholash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

To‘rtinchidan, Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent misolida qiyosiy smart-destinatsiya modeli ishlab chiqilishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekiston turizmining kelajakdagi raqobatbardoshligi turistlar sonining ko‘payishidangina emas, balki raqamli innovatsiyalar, ekologik mas’uliyat, sifatli xizmat va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvning yagona tizimda uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi. Shu sababli taklif etilayotgan transformatsion model mamlakat turizmini 2030-yilgacha zamonaviy, raqobatbardosh va barqaror turizm tizimiga aylantirish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Buhalis D., Law R. Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet — The state of eTourism research // *Tourism Management*. — 2008. — Vol. 29, No. 4. — P. 609–623.
2. Xiang Z., Fesenmaier D. R. *Analytics in Tourism Design: Information Technology and Tourism*. — Cham: Springer, 2017. — 280 p.
3. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // *Electronic Markets*. — 2015. — Vol. 25. — P. 179–188.
4. Gretzel U., Werthner H., Koo C., Lamsfus C. Conceptual foundations for understanding smart tourism ecosystems // *Computers in Human Behavior*. — 2015. — Vol. 50. — P. 558–563.
5. UNWTO. *Tourism and the Sustainable Development Goals – Journey to 2030*. — Madrid: World Tourism Organization, 2018.
6. OECD. *OECD Tourism Trends and Policies 2024*. — Paris: OECD Publishing, 2024. — 353 p.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *O‘zbekiston — 2030 strategiyasi*. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy nashri, 2023. — Elektron resurs. https://lex.uz/docs/6600413
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *O‘zbekiston — 2030 strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida*. — Toshkent, 2025. — Elektron resurs. https://gov.uz/oz/edu/pages/pqpf
9. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. *Turizm infratuzilmasini raqamlashtirish bo‘yicha yangi start-up loyiha taqdim etildi*. — Toshkent, 2026. — Elektron resurs. https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/167155
10. World Tourism Organization. *Measuring the Sustainability of Tourism: Developing a Statistical Framework for Sustainable Tourism*. — Madrid: UNWTO, 2023.
11. Buhalis D., Amaranggana A. Smart tourism destinations // *Information and Communication Technologies in Tourism 2015*. — Cham: Springer, 2015. — P. 377–389.
12. Del Vecchio P., Mele G., Ndou V., Secundo G. Open innovation and social big data for sustainability: evidence from the tourism sector // *Sustainability*. — 2018. — Vol. 10, No. 2. — P. 1–18.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

## 2026. № 8/2



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz